

QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINING HOLATINI YAXSHILASHDA DOIMY NAZORATNING AHAMIYATI

Haydarova Nargiza Olimboyevna

Toshkent Hidrometeorologiya texnikumi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qishloq xo'jalik yerlarida yer monitoringini o'tkazish asoslari va ushlari, qishloq xo'jalik yerlarida yer monitoringini o'tkazishni takomillashtirish, yer monitoringini o'tkazishning tashkiliy-huquqiy asoslari, qishloq xo'jalik yerlarida yer monitoringini o'tkazish jaroyonida aniqlangan kamchilik va muammolarni hal etish yo'llari, qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilishning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

***Kalit so'zlar:** qishloq xo'jalik yerlari, monitoring, tuproq, xatlov, unumdorlik, chirindi, yer hisobi, eroziya, sho'rlanish, agroekologik monitoring, ball bonitet, unumdorlik, me'yoriy qiymat.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны основы и методы проведения мониторинга земель сельскохозяйственного назначения, совершенствования мониторинга земель сельскохозяйственного назначения, организационно-правовые основы проведения мониторинга земель, мониторинга земель сельскохозяйственного назначения, недостатки и пути решения выявленных в процессе проблем, специфика мониторинга земель сельскохозяйственного назначения.

***Ключевые слова:** сельскохозяйственные угодья, мониторинг, почва, инвентаризация, урожайность, сладость, учет земель, эрозия, засоление, агроэкологический мониторинг, балльная качество, продуктивность, нормативное значение.*

KIRISH

Inson yaralgandan buyon to bugungi kungacha yerda mehnat qiladi mahsulot ekadi, oila tebratadi. Inson va yer. Bu ikki so'z bir-biriga shunchalik chambarchas bo'g'lanib ketganki, bu ikkisini bir biridan aslo ajratib bo'lmaydi. Insoniyat yerda mahsulot yetishtiribgina qolmay unda o'zi uchun makon qiladi, uy- joy quradi. Yer insonning hayotida shunchalik muhim rol o'ynaydiki insonning har bir ishi, har bir rejasi va har bir orzu umidi yer bilan uzviy bo'g'liq hisoblanadi. Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni bir paytda qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, eng avvalo mamlakat bozorini ta'minlash undan so'ng jahon bozoriga

eksport qilish qishloq xo'jalik korxonalari oldida turgan eng asosiy vazifadir. Qishloq xo'jalik korxonalarining ish faoliyatini yanada yaxshilash fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklarining yer maydonlaridan yanada samarali foydalanishlarini tashkil qilish uchun davlat tomonidan ulkan ishlar amalga oshirilayapti. Mamlakatimizda ishlab chiqilayotgan qonunlar, qarorlar va boshqa bir qator meyoriy hujjatlar har bir sohaning izchillik bilan rivojlanishining kafilidir. Respublikamizni qishloq xo'jaligisiz tasavvur qilish qiyin albatta. Agrar sohada ishlab chiqilayotgan qonunlar negizida mamlakatning ham iqtisodiy ham ijtimoiy rivojlanishi ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasida 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan "Yer kodeksi" "Shirkat kooperativi" "Dehqon xo'jaligi", "Tomorqa xo'jaligi" "Fermer xo'jaligi" to'g'risidagi qonunlari qishloq xo'jaligini yanada rivojlanishiga huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda "Fermerlik harakati"ning yo'lga qo'yilishi qishloq xo'jaligi yerlaridan yanada samarali va oqilona foydalanish imkonini berdi.

Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish maqsadida tuproq unumdorligini muttasil oshirish, yerlarni hosildorligini o'sishi mahsulot hajmini ko'payishi va uning o'lchov birligiga to'g'ri keladigan harajatlarni kamayishi bilan izohlanadi. Albatta bu tadbirlarni yuqorida keltirilgan beshta yo'nalishning o'zaro bog'liqligi va muttanosibli natijasida amalga oshirish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yoki ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi. Ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligini yuritish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlari va daraxtzorlar, ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiyalar, o'rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlarga ajraladi. Shuningdek, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxt ko'chatzorlari, mevazorlar va boshqalar) egallagan yerlar ham qishloq xo'jaligi yerlari jumlasiga kiradi. Respublikada qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining soni fermer xo'jaliklari bilan birgalikda olganda, 2020 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 103605 ta bo'lib, ularga birlashtirib berilgan yerlarning umumiy yer maydoni 20761,6 ming gektarni, shu jumladan qishloq xo'jalik yer turlari maydoni 16025,6 ming gektarni, shundan 3694,8 ming gektari sug'oriladigan yerlarni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi hududining 46,25 foizini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar egallagan bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda asosiy

vosita hisoblanadi. Respublika hududida qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlarning taqsimlanishi tabiiy iqlim omillariga binoan belgilanadi. [2]

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. [3]

Respublika aholisi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi, qishloq xo'jaligi yerlarining boshqa toifaga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi ta'sirining keskinlashuvi oqibatida oxirgi 15 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonlari o'lchami 24 foizga (0,23 gektardan 0,16 gektargacha), o'rtacha yillik suv ta'minoti darajasi esa 3 048 metr kubdan 158,9 metr kubgacha qisqardi. Uzoq yillar davomida qishloq xo'jaligi yerlaridan nooqilona foydalanish natijasida tuproqning tabiiy unumdorligi va ekinlar hosildorligi pasayib, yetishtirilgan mahsulot sifati yomonlashmoqda, atrof muhit ifloslanishi ortib bormoqda. Jumladan, sug'oriladigan ekin yerlaridagi tuproqlarning 93 foizida harakatchan fosfor miqdori, 68,3 foizida almashuvchan kaliy miqdori, 79,3 foizida gumus (chirindi) miqdori o'rtachadan past darajaga tushib qolgan. Milliy daromadi O'zbekiston bilan deyarli bir xil bo'lgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun davlat budjetining 4-5 foizi yo'naltiriladi yoki YaIMga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarda 1 foizdan ortiqroqni, daromadi yuqori bo'lgan davlatlarda esa 1 foizdan kamroqni tashkil etadi. Bugun yer hisobi va davlat kadastr sohasidagi kamchiliklarga ko'z yugurtirib chiqadigan bo'lsak birgina 2020-yilda 50 mingga yaqin holatda 11200 gektar yer o'zboshimchalik bilan egallangan, shundan 3200 gektarda noqonuniy uy-joy qurilgan. Bularning 99 foizi sug'oriladigan, unumdor qishloq xo'jaligi yerlari hisoblanadi. Umuman, 113 tumanda yer fondi toifalari va turlarining aniq hisob-kitobi bo'lmagani oqibatida ko'plab zaxiralar yo'qotilmoqda. Bugun Respublikamizda yerlarni sho'r yuvishga tayyorlash va sho'r yuvish ishlarini agrotexnik qoidalar asosida sifatli va tizimli tashkil etishga, suv iste'molini nazorat qilishga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Natijada agroklastlar,

fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan yerlarni sho'r yuvishga tayyorlash va sho'r yuvishda, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoliy tumanlarida, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida, shuningdek, Buxoro, Navoiy, Farg'ona va Xorazm viloyatlarining aksariyat tumanlarida agrotexnik qoidalar va muddatlar qo'pol ravishda buzilib, suv isrofgarchiligiga yo'l qo'yilgan, sho'r yuvish ishlarining samarasi pastligicha qolmoqda.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida izchillik bilan o'tkazilayotgan islohotlar, xo'jalik yuritishning yangi shakllari fermer xo'jaliklari va boshqa yerlardan foydalanuvchilar tizimi yaratilganligi, fermerlarning o'zlari egalik qilayotgan yer maydonlari tuproqlarining holati, unumdorlik darajasini bilish ehtiyojini tug'dirmoqda. Bu borada yer monitoringini asosiy tarkibiy qismi bo'lgan tuproq bonitirovkasi aniqlash va uni nazorat qilish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda respublikamizda mavjud fermer xo'jaliklarining sug'oriladigan yerlarini baholash hamda shu asosda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini belgilash, bonitirovka ma'lumotlaridan turli maqsadlarda foydalanish juda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar yer toifalari orasida o'z maydoniga ko'ra birinchi bo'lib, mamlakatning yagona yer fondini tashkil etadi hamda O'zbekiston hududining 50%idan kamrog'ini egallaydi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni monitoring qilish masalasiga alohida e'tibor beriladi. Yer resurslarini kompleks boshqarish o'zida yer munosabatlarini tartibga solishga, yerlardan foydalanish va muhofaza qilish samaradorligini tashkil etish va ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, tashkiliy, texnik va huquqiy choralar tizimini ifodalaydi, hamda o'z ichiga yer resurslarini tadqiq etish, kartografiya qilish, yer kadastrini yuritish, yer resurslaridan oqilona foydalanishni rejalashtirish va prognozlashni, shuningdek yerdan foydalanish oqilonaligini rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmi va usullarini joriy etishni ham qamrab oladi.

REFERENCES

1. Asatov Sayitqul, Axtamov Suxrob, Mahmudov Mironshoh. Removal of chemical weed killers and organics from irrigated land. International Conference on Scientific, Educational & Humanitarian Advancements Hosted online from, Samsun, Turkey, July 15 th , 2021.pp-264-267. www.econferenceglobe.com.
2. Shamshodovich, K. F., Akhtamov, S., Muhammadov, K., & Bobojonov, S.

(2021). THE IMPORTANCE OF THE CLUSTER SYSTEM TODAY. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(ISPCIEI), 3-3.

3. SB Adizov, AB Obidovich, MM Maxmudov - Academic Journal of Digital Economics and Stability, 2021 Rights and Responsibilities of the Spouses

4. Sattorov J. Reclamation of land resources, improvement of fertility, their efficient use and protection. // Agro ilm.-Tashkent, 2014-№1 (29). –P.53-54.

5. Gofurov K, Abdullaev S. Characteristics of the soil cover of the irrigated zone of the Bukhara region. Publishing house. "FAN", Tashkent, 1982. - p. 83-125.

6. Komilov O.K. Land reclamation in Uzbekistan. - Tashkent: Publishing House. «FAN», 1985. - p.230.